

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LM VAZIRLIGI**


TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”



“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi



Ko‘ryhatga olindi: BD -5111700-3.03

2018 - yil "18" 08

TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi	100000	-	Gumanitar
Ta‘lim sohasi:	110000	-	Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi:	5111700	-	Boshlang‘ich ta‘lim va sport- tarbiyaviy ish

Toshkent-2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08" 08 "dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "26" 08 "dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

X.R.Sanaqulov Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

D.P.Xodiyeva Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchi:

R.Ergashev - Guliston davlat universiteti dotsent, p.f.n.

Sobirov B. - Amaliy maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedrasida p.f.n. dotsent

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil "26" 06 "dagi 11-sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi oily kasbiy ta'limdagi o'rni

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tasviriy san'at, tabiatshunoslik fanlari bilan bog'lanadi. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish asosida ularni to'garak ishlariga, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirishga, mustaqil ishlar, ma'ruzalar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishi yozishga jalb qilish tavsiya etiladi. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani ta'lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beraladi. O'quvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlaydi. Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o'quvchilarning aqliy o'sishida eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Talabalarning fanni o'zlashtirish jarayonida darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnik vositalardan unumli foydalanish, uzatish qurilmalari yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'lim jarayoniga tadbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

II. O'quv fanining maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsadi – talabalarni boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifalari - Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, bilim berish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasblar haqida ma'lumot berish izchilligini takomillashtirish, Davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berish.

Talaba:

- boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining shakl va metodlari;
- kasb-hunar tarbiyasi bo'yicha tadbirlar o'tkazish;
- texnologiya fani va ijtimoiy mehnat turlari;
- kasb-hunar turlari bo'yicha ma'lumotlar;
- texnologiya fanining maqsad va vazifalari;
- boshlang'ich sinf texnologiya fani mazmuni;
- texnologiya fanidan amaliy ish turlari;
- sinfdan tashqari ishlardan to'garaklarni tashkil etish;
- mehnat tarbiyasida mutaffakirlar merosini targ'ib etish;
- boshlang'ich sinf texnologiya fanidan qo'yiladigan talablar;
- texnologiya fani jarayonida interfaol metodlardan foydalanish;
- texnologiya fanini o'qitish shakllari;

- texnologiya fanidan sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish;
- texnologiya fanida xalq ogʻzaki ijodi vositalarini qoʻllay olish;
- boshlangʻich taʼlimda qoʻl mehnatining oʻziga xos xususiyatlari;
- texnologiya fanidan amaliy ishlarni tashkil etish shakl va metodlari;
- texnologiya faniga oid darslarini tashkil etish usullari;
- texnologiya fanining shakl va metodlari;
- texnologiya faniga oid oʻquv-meʼyoriy hujjatlarni yurita olish;
- texnologiya fanidan oʻquv-dasturini tahlil qilish;
- texnologiya fanidan taqvim reja tuzish;
- mehnat taʼlimida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni rejalashtirish;
- sinflar kesimida kasb-hunar turlarini toifalash;
- texnologiya fanidan amaliy mashgʻulotlar jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan qogʻoz va karton turlari va xususiyatlari
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan qoʻl mehnatiga oʻrgatish usullari;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan qaychi bilan ishlash qoidalari;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan nina bilan ishlash qoidalari;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan bigiz va pichoq bilan ishlash qoidalari;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan plastillin bilan ishlash texnologiyasi;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan gazlamaga ishlov berish texnologiyasi;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan ip va tola turlariga ishlov berish texnologiyasi *bilimga*;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan internet manbalarini qoʻllash;
- nazariy va amaliy bilimlarning uzviyiligini taʼminlash;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fani jarayonida axborot texnologiyalarni qoʻllash;
- Texnologiya jarayonida oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantira olish;
- amaliy ish jarayonida ish qurollaridan toʻgʻri foydalanish;
- Mehnat tarbiyasida kasb-hunarga qiziqtirish;
- Mehnat taʼlimi va tarbiyasida mehnat anʼanalaridan samarali foydalana olish;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan taʼlimiy va tarbiyaviy innovatsion metodlarni qoʻllay olish;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanidan oʻquvchilar bilimini tekshirish va baholay olish;
- oʻquvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash;
- oʻquvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash;
- oʻquvchilarni mehnatga axloqiy tayyorlash;
- “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanini oʻqitishda texnik vositalardan foydalana olish;

- "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanida turli ko'rgazma hamda tarqatma materiallardan samarali foydalana olish;
- texnologiya darslarida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish;
- texnologiya darslaridan mustaqil ishlarni tashkil etish;
- texnologiya darslarida sanitariya-gigienik talablarga rioya etish;
- amaliy mashg'ulotlar uchun ko'rgazmali materiallarni tayyorlash;
- texnologiya darslarida tabiiy materiallarga ishlov berish;
- texnologiya darslarida qog'oz va kartonga ishlov berish;
- texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlarda ish joyini to'g'ri tashkil etish;
- texnologiya darslarida tabiiy materiallardan ko'rgazmalar tayyorlash;
- texnologiya darslarida plastilindan turli o'yinchoqlarni yasash;
- texnologiya darslarida gazlamadan turli buyumlar tikish;
- texnologiya darslarida qog'ozdan ko'rgazmali qurollar tayyorlash;
- texnologiya darslarida kartondan turli modellar yasash;
- texnologiya darslarida ipdan chok turlarini tikish;
- texnologiya darslarida matodan yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash *ko'nikma*;
- texnologiya darslarida nazariy bilimlarni amalda qo'llash olish;
- texnologiya darslaridan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish;
- texnologiya darslari jarayonini intergatsiyalash va modernizatsiyalash;
- texnologiya darslarida ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish;
- texnologiya darslarida turli va tabiiy materiallardan samarali foydalana olish;
- plastilin bilan ishlashda hakaltaroshlik elementlaridan foydalanish;
- qog'oz va karton bilan ishlash darslarida tejamkorlikka o'rgatish;
- texnologiya darslaridan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish;
- boshlang'ich sinf Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalarni qo'llash;
- mehnat ta'limi va tarbiyasida ajdodlar merosidan va xalq og'zaki ijodidan foydalanish;
- sinf va sinfdan tashqari ishlarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish;
- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda tashkiliy, ilmiy, metodik, axborot va dasturiy ta'minotni amalga oshirish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-MODUL. Texnologiya va uni o'qitish metodikasining umumiy masalalari.

1-Mavzu: Texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari

Texnologiya o'qitish metodikasi fanining vazifalari. Texnologiya fanini o'qitishda metodik yondashuv. O'quvchilarni mehnatga axloqiy, ruhiy va amaliy tayyorlash. Texnologiya darslarini tashkil qilish shakllari. Texnologiyaga munosabatni shakllantirish. Boshlang'ich Texnologiya fani elementlari bilan tanishtirish

2-Mavzu: Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari

Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining o'qitish metodologiyasi. Texnologiya fanini o'qitish tamoyillari. Texnologiya fani nazariyasining asosiy negizlari. Texnologiya fani ta'limi va tarbiyasining uzviyligi.

3-Mavzu:Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni

Boshlang'ich sinf texnologiya fani DTS tahlili. O'quv fan dasturlarining mazmuni va ularning tahlili (1-4 sinflar kesimida). O'quv dasturining mazmuni va unga qo'yilgan talablar. Texnologiya darslaridagi amaliy ish turlari va mazmuni.

4-Mavzu:Boshlang'ich sinf texnologiya darslariga kompetensiyalar yondashuv

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darsi mavzulariga qo'yilgan talablar. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi tuzilishi o'ziga xos xususiyatlari va mazmuni. Barcha materiallarni o'rganishdagi uzviylik va uzluksizlik.

5-Mavzu:Texnologiya ta'limining shakl va metodlari

Boshlang'ich sinflarda texnologiya faning shakl va usullari. Metod tushunchalari, uning turlari. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi va ular orasidagi bog'liqlik. O'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishning shakl va usullari, didaktik materiallardan foydalanish metodlari.

6-Mavzu:Texnologiya fani darslariga integratsion yondashuv

Integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish omillari.

7-Mavzu:O'quvchilarning mehnat tarbiyasida mehnat an'alarining o'rni

Xalq merosida mehnat an'alaridan o'rni. Mehnat an'alarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati. Texnologiya darslarida mehnat an'alaridan foydalanishning shakllari.

8-Mavzu:Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi

Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi. Mutafakkirlarning kasb-hunarga oid fikrlari. Kasb-hunarga yo'naltirishga oid o'yin va tadbir turlari.

9-Mavzu:Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi va kasb-hunar turlari.

O'quvchilarni mehnatga tarbiyalash. Kasb-hunarlar haqida tushuncha. Kasb-hunar turlari va mazmuni. Texnologiya darslarida kasb-hunarga yo'naltirish.

10-Mavzu:Mehnat tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rni.

Xalq og'zaki ijodida mehnat tarbiyasining targ'ib etilish. Xalq maqollarida mehnat tarbiyasi. Xalq rivoyatlari asosida o'quvchilarni mehnatga o'rgatish.

11-Mavzu:Texnologiya darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyalari

Texnologiya darslarida kasb-hunarga yo'naltirish. Kasbga oid ma'lumotlar. Kasbga yo'naltirishda turli boshqotirmalardan foydalanish. Kasbga yo'naltirishga doir o'yin texnologiyalaridan foydalanish.

12-Mavzu:Texnologiya darslarida xorijiy ta'lim tizimidan foydalanish

Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi. Texnologiya ta'limning ahamiyati va mohiyati. Modulli-ta'lim tizimining mohiyati. Zamonaviy ta'lim shakllari: masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlar.

13-Mavzu:Texnologiya darslarida qo'l mehnatidan foydalanish talablari

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatiga o'rgatishni tashkil qilish shakllari. Qo'l Texnologiya faniga o'rgatishda ish turlarining mazmuni. Amaliy ish samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan talablar. Mavzuga mos o'qitish metodlari.

14-Mavzu:Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limidan amaliy ishlar

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida amaliy ish turlari. Ish quollaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish texnologiyai. Texnologiya fani ish quollari va ish materiallari bilan tanishtirish va ulardan foydalanish talablari.

15-Mavzu:Texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish

Axborot kommunikatsion texnologiyalari haqida ma'lumot. Texnologiya ta'limi darslarida AKTdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Amaliy mashg'ulotlar uchun taqdimot tayyorlash texnologiyalari.

16-Mavzu:Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumot. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning shakl va metodlari. Innovatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish usullari.

17-Mavzu:Interfaol usullarni texnologiya darslarida foydalanish usullari.

Interfaol ta'lim texnologiyalarining didaktik mohiyati. Interfaol ta'lim metodlari. Texnologiya darslarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish tartibi. .

18-Mavzu:Mehnat ta'limi va tarbiyasining uzviyligi.

Mehnatga munocabat. Mehnat ta'limi va tarbiyasining uzviyligi va ularning o'ziga xos jixatlari. Integratsiyalashgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish omillari.

II-MODUL. Texnologiya darslarini tashkil etish metodikasi

19-Mavzu:Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini

tashkil etish metodikasi

Applikatsiya va mozaika san'ati haqida tushuncha. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash texnologiyasi. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini to'g'ri tashkil etish talablari. Applikatsiya va mozaika ishlarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati. Texnika xavfsizligi qoidalari.

20-Mavzu: Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining mazmunini tashkil etish metodikasi

Qog'oz va karton haqida ma'lumot. Qog'ozning ishlab chiqarishdagi o'rni. Qog'oz va karton turlari va xususiyatlari. Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari. Qog'oz va karton bilan ishlash texnologiyasi. Ish joyini tashkil qilish talablari. Texnika xavfsizligi qoidalari.

21-Mavzu: Turli xil materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Turli xil materiallar haqida tushuncha. Turli xil materiallarni to'plash va ishga tayyorlash Turli xil materiallardan turli buyumlar yasash texnologiyasi. Ish joyini to'g'ri tashkil etish talablari. Texnika xavfsizligi qoidalari.

22-Mavzu: Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Tabiiy materiallarni to'plash va ishga tayyorlash. Tabiiy materiallardan (barglar, somon qalamchalari, yong'oq po'choqlari, patlar, o'simlik urug'lari va boshqa materiallar) applikatsiyalar va o'yinchoqlar yasash texnologiyasi. Tabiiy materiallar bilan ishlashga oid ish joyini tashkil etish talablari.

23-Mavzu: Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Kulolchilik va haykaltaroshlik ishlari haqida ma'lumot. Plastilin va loyning tarkibi va xususiyatlari. Plastilin va loyga ishlov berish usullari. Plastilin va loy bilan ishlash darslarida ish o'rnini tashkil etish talablari. Plastilin va loy bilan ishlash darslari tashkil etish metodikasi. Plastilin va loy bilan ishlashda sanitariya-gigienik talablar.

24-Mavzu: Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

Gazlama va ip turlari. Gazlamaning xususiyatlari. Gazlamaning sanoatda ishlab chiqarilishi. Gazlama bilan ishlash metodikasi. Gazlamaga ishlov berish (o'lchash, andoza olish va qirg'ish) metodikasi. Gazlama bilan ishlashda ish joyini to'g'ri tashkil qilish talablari.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanidan quyidagi ish turlaridan namunalarni yasashni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsifiya etiladigan mavzulari:

1. Qog'ozga ishlov berish usullari. Qog'ozni buklay usullari
2. Qog'ozni ketma-ket usulda buklay maketlar yasash.
3. Qog'ozni oddiy usullarda buklay maketlar yasash.
4. Qog'ozni murakkab usullarda buklay maketlar yasash.
5. "Oq qush" modulli origamisini qurish-yasash.
6. Ertak qahramonlarining modulli origamisi
7. Modulli origami gullari
8. "Sanoq sonlari" ko'rgazmali qurolini tayyorlash
9. "Telefon" ko'rgazmali materialni tayyorlash.

10. "Olmali daraxt" ko'rgazmali materialni tayyorlash.
11. "O'yla, Izla, Top" ko'rgazmali materialni tayyorlash.
12. Kvilling usulida tabriknoma tayyorlash.
13. Kvillingda bahor gullari
14. Kvillingda ertak qahramonlari
15. Kvillingda applikasiyalar
16. Kvillingda ko'rgazmalar
17. Mozaika usulida tabriknoma tayyorlash.
18. Chiqindi materiallaridan buyumlar yasash
19. Chiqindi materiallaridan choynak tagligini yasash.
20. Geometrik figuralardan predmetli applikasiya yasash.
21. Rangli qog'ozlardan bayram tabriknomasini tayyorlash.
22. Turli materiallardan hajmdor gullar yasash.
23. Applikasiya usulida barglardan qurish-yasash.
24. Barglardan guldasta tayyorlash.
25. Urug'lardan applikasiya yasash.
26. Xona o'simliklarini parvarish qilish usullari.
27. Ish fartugini tikish va dars ishlanmasini tuzish.
28. Tugma qadash texnologiyasi.
29. Qog'ozdan mozaika yasash.
30. Tuxum po'chog'idan mozaika yasash.
31. Fasllar mavzusida applikasiya tayyorlash.
32. Ertak qahramonlari aosida applikasiya tayyorlash
33. Pape-mashe bilan ishlash texnologiyasi.
34. Kartondan rasm uchun ramka yasash.
35. Turli materiallardan bayram sovg'asini tayyorlash.
36. Tuxum po'choqlaridan hajmdor o'yinchoqlar yasash.
37. Turli materiallardan archa bezaklarini yasash (Qo g'oz va shardan).
38. Plastilindan mevalar shaklini yasash.
39. Plastilindan turli o'yinchoqlar yasash.
40. Ipdan turli choklarni tikish usullari.
41. Ipdan turli o'yinchoqlar yasash.
42. Paralondan o'yinchoqlar yasash.
43. Filcha yumshoq o'yinchoq'ini tikish.
44. Kartondan harakatlanuvchi o'yinchoqlar yasash.
45. Turli materiallardan svetafor maketini qurish-yasash.

IV.Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarda talabalar "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanidan quyidagi mavzuni o'rganadilar.

1. Ish joyini tashkil etish talablari. Texnika xavfsizligi qoidalari
2. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi
3. Texnologiya darslariga oid tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish
4. Texnologiya darslarini integratsiyalash

5. Mehnat an'analari mehnat tarbiyasi.
6. O'yinlar orqali kasb-hunarga yo'naltirish
7. Zamonaviy ta'lim shakllari: masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlar.
8. Mehnat tarbiyasida xalq og'zaki ijodidan foydalanish
9. Kasb-hunarga yo'naltirishda boshqotirmalardan foydalanish
10. Axborot texnologiyalarini mashg'ulotlarda qo'llash metodikasi

Amaliy va seminar mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatma va tavsiyalar talabalarning ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy topshiriqlarni bajarish orqali bilimlarini yanada boyitishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini mustahkamlash uchun tarqatma materiallardan foydalanish hamda ilmiy maqolalar va tezislarni nashr etish orqali talabalar bilimini yanada oshirish tavsiya etiladi.

V. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarga "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mustaqil ravishda darslik, o'quv qo'llanmalar va metodik qo'llanmalardagi mavzularni o'rganish va tahlil qilish;
- tarqatma materiallar bo'yicha o'rganilgan ma'ruza materiallarini o'zlashtirish;
- ish turlari bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarish;
- axborot texnologiyalaridan foydalanib, mavzu bo'yicha taqdimotlar tayyorlash;
- fanga oid BMI, kurs ishlarini o'rganish, tahlil qilish va tayyorlash;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish usullarini o'rganish;
- ta'lim jarayonida muammoli o'qitish usullari va masofaviy ta'limdan foydalanish

VI. Asosiy va qo'shimch adabiyotlar hamda axborot manbalari **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: TDPU. 2007-yil.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang'ich sinflarda qo'g'ozdan amaliy ishlar. O'quv-metodik qo'llanma. T.: Navro'z. 2013-yil.

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. "Texnologiya" 2-sinf darsligi. T.: "Sharq". 2018-yil

5. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat ta'limi 3-sinf darsligi. T.: "Sharq". 2016-yil

6. The Exquisite Book of Paper
Unbelievably Realistic Paper
Paperback New York, Boston.

Flowers: A Guide to Making
USA, 2014 Blooms. USA, 2014.

Internet saytlar

7. www.tdpu.uz

8. www.pedagog.uz

9. www.ziyonet.uz

10. www.lex.uz;

11. www.bilim.uz;

12. www.gov.uz;

1. The first part of the document is a letter from the Secretary of the State to the Governor, dated 10th March 1870. It contains a report on the state of the State and the progress of the various departments.

2. The second part of the document is a report from the Secretary of the State to the Governor, dated 10th March 1870. It contains a report on the state of the State and the progress of the various departments.

3. The third part of the document is a report from the Secretary of the State to the Governor, dated 10th March 1870. It contains a report on the state of the State and the progress of the various departments.

4. The fourth part of the document is a report from the Secretary of the State to the Governor, dated 10th March 1870. It contains a report on the state of the State and the progress of the various departments.

5. The fifth part of the document is a report from the Secretary of the State to the Governor, dated 10th March 1870. It contains a report on the state of the State and the progress of the various departments.

6. The sixth part of the document is a report from the Secretary of the State to the Governor, dated 10th March 1870. It contains a report on the state of the State and the progress of the various departments.

7. The seventh part of the document is a report from the Secretary of the State to the Governor, dated 10th March 1870. It contains a report on the state of the State and the progress of the various departments.

8. The eighth part of the document is a report from the Secretary of the State to the Governor, dated 10th March 1870. It contains a report on the state of the State and the progress of the various departments.